

## GO‘ZALLIK SALONLARI VA SARTAROSHXONALARDA SANITARIYA-GIGIYENA HOLATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Ubbiniyazova Aysulu Maxsetbayevna**

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697138>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda go‘zallik salonlari va sartaroshxonalarda sanitariya-gigiyena holatini baholash, mavjud xavf omillarini aniqlash hamda sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** go‘zallik saloni, sartaroshxona, gigiyena, dezinfeksiya, sterilizatsiya, epidemiologik xavfsizlik, profilaktika.

So‘nggi yillarda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanib, go‘zallik salonlari va sartaroshxonalar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur muassasalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmasligi turli yuqumli va noyuqumli kasalliklar yuzaga kelish xavfini oshirishi mumkin.

Go‘zallik salonlari va sartaroshxonalarda xizmat ko‘rsatish jarayonida mijozlar va xodimlar turli biologik, kimyoviy hamda fizik omillar ta‘siriga duch keladilar. Asbob-uskunalarini yetarli darajada dezinfeksiya qilmaslik, sterilizatsiya qoidalariga amal qilmaslik, bir martalik vositalardan qayta foydalanish hamda sanitariya qoidalarining buzilishi gepatit B va C, teri-zamburug‘ kasalliklari hamda boshqa infeksiyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar natijasida salon va sartaroshxonalarining ichki muhitida mikroiklim ko‘rsatkichlarining me‘yorlardan chetga chiqishi, havo tarkibida uchuvchi organik birikmalar miqdorining ortishi hamda mikrobiologik ifloslanish darajasining yuqoriligi aniqlangan. Ayniqsa, ventilyatsiya tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi xodimlar salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

Sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlarini muntazam nazorat qilish;
- bir martalik sarf materiallaridan keng foydalanish;
- xodimlarning sanitariya-gigiyena bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish;
- ishlab chiqarish nazoratini kuchaytirish;
- mikroiklim va ventilyatsiya tizimlarini muntazam monitoring qilish;
- sanitariya qoidalari va me‘yorlari talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash.

Go‘zallik salonlari va sartaroshxonalarda sanitariya-gigiyena holatini takomillashtirish nafaqat xizmatlar sifati va xavfsizligini oshirishga, balki aholi salomatligini muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Shu sababli ushbu muassasalarda sanitariya nazoratini kuchaytirish va profilaktik chora-tadbirlarni ilmiy asosda takomillashtirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Go‘zallik salonlari va sartaroshxonalarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi epidemiologik xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi. Profilaktik tadbirlarni takomillashtirish, zamonaviy dezinfeksiya va sterilizatsiya usullarini qo‘llash hamda sanitariya nazoratini kuchaytirish aholi salomatligini saqlashda muhim o‘rin tutadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi PQ–4752-son qarori “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. Iskandarova G.T. Kommunal gigiyena. – Toshkent, 2024.
4. Popova A.Yu. Sanitariya-epidemiologik nazoratning zamonaviy jihatlari. – Moskva, 2023.
5. Johnson M.L., Smith R. Public Health Risks in Beauty Salons and Barbershops // Journal of Environmental Health. – 2024.
6. Quach L., Nguyen T., Roelofs M. Occupational Health Risks among Nail and Hair Salon Workers // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2024.